



O'ZBEK AUDITORIYASINING TALABALARI UCHUN INGLIZ TILI DARSLIKLARIDA ANTROPOSENTRIK MAQOLLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Eshonkulova Gulrux Yunusovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, doktoranti*

Abstract. In the introduction to this article, a brief description of English Proverbs is given, which works have reached us through, what properties of them are manifested and the opinions of scientists are touched upon. In the following part, anthropocentric proverbs were described and examples were given, one main textbook in school, college and higher education was taken into analysis and the place and amount of anthropocentric proverbs in English educational textbooks were covered.

Key words: folk oral creativity, paremia, proverbs, anthropocentric proverbs, didactics, textbooks

Annotatsiya. Ushbu maqolaning kirish qismida ingliz xalq maqollariga qisqacha ta'rif berilib, qaysi asarlar orqali bizga yetib kelgani, ularning qaysi xossalari namoyon bo'lishi, olimlarning fikrlari to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Keying qismida antroposentrik maqollar tavsiflanib, misollar keltirilib, maktab, kollej va oliv o'quv yurtidagi bittadan asosiy darslik olinib tahvilga tortildi va ingliz tili o'quv darsliklardagi antroposentrik maqollar o'rni va miqdori yoritilib berildi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, paremiya, maqollar, antroposentrik maqollar, didaktika, darsliklar

Аннотация. Во введении к этой статье дается краткое описание английских пословиц, благодаря каким произведениям они дошли до нас, какие свойства в них проявляются и затрагиваются мнения ученых. В следующей части были описаны антропоцентрические пословицы и приведены примеры, был проведен анализ одного основного учебника в школе, колледже и высшем образовании, а также рассмотрено место и количество антропоцентрических пословиц в учебных пособиях по английскому языку.

Ключевые слова: народное устное творчество, паремии, пословицы, антропоцентрические пословицы, дидактика, учебники

Xalq talantlari tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyot mahsuli bo'lib , uni biz ixchamgina tarzda folklor deb ham atashimiz mumkin.U ko'p asrlar ilgari paydo bo'lган bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga sabab bo'lган. Va albatta, yozma adabiyot paydo bo'lgach, bir-biriga ta'sir etgan holda rivojlanib borgan. Xalq og'zaki ijodi davrlar o'tishi bilan sayqallanib borgan. Bevosita bu xalq xayoti, uning dunyo qarashlariga bog'liq holda yuz borgan. Xalq og'zaki ijodi tuzilishi ijod mazmuni, ijro harakteriga ko'ra to'rt turga bo'linadi[Mirzayev, 2012, 47b]:

- 1.epik tur-doston, ertak, og'zaki hikoya, latifa, tarixiy qo'shiq, rivoyat, afsona.....
- 2.lirik tur-xalq qo'shiqlarining barcha janrlari;
- 3.dramatik tur-og'zaki dramalar, askiya, lapar, aytishuv, masxarabozlik, qiziqchilik....
- 4.maxsus tur-xalq donoligining ifodasi bo'lmish xalq maqollari, hikmatli so'zlar, topishmoqlar.

Xalq og'zaki ijodining maxsus turi hisoblangan maqollar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Maqollar xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-xayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ular nutq jarayonida shakllanib borgan, lo'nda aniq fikr hisoblanadi. Maqollarda mehnatkash xalqning orzu umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, qisqasi barcha ijobjiy fazilatlari aks ettirilgan bo'ladi. XIX asrda yashagan V.I.Dal, tilshunos olim maqollar haqida shunday degan:"Maqol....to'qib chiqarilmaydi,

u o'z-o'zidan dunyoga keladi" degan.[Даль, 2000,14b] Maqollarni o'rganmay turib, xalqlarning kelib chiqishini, etnik tarixini, uning madaniyatini, turmush tarzini o'rgana olmaymiz. Bundan kelib chiqadiki, maqollarning tadbiq etilishi nafaqat ko'pchilik fanlarning rivojlanishida foydali va zarurdir, balki maqollarning chuqur tahlil etilishi boshqa fanlarni jalg etmasdan qolmaydi. Maqollar barcha boshqa paremiyalar singari quyidagi xossalarda namoyon bo'ladi. [Imomov, Mirzayev,Sarimsoqov,1990,130b]:

- 1.qoliplashganlik;
- 2.aforistiklik;
- 3.utilitarlik;
- 4.antroposentriklik;

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari insonlarning hayotiy tajribalari, turmush-tarzi, uy-fikrlaridan kelib chiqqan va ular ingliz xalq og'zaki ijodining noyob xazinalaridandir. O'zbek xalq maqollarining kelib chiqishi Mahmud Qoshg'ariyning " Devonu lug'otit turk" asariga borib taqalsa, ingliz xalq maqollarining tarqalishida " Bible" ning o'rni juda kattadir. Bu kitobda ingliz xalqining ajdoddlari yaratgan maqollari jamlangandir.

Ingliz xalq maqollari ustida ko'plab ingliz olimlar o'z izlanishlarini olib borganlar. Masalan: Honek, maqollarni hamma sohada: folklorchi olimlardan tortib siyosatchilargacha, hattoki huquqshunoslarning ishida ham ularning o'ziga xos o'rnilarini borligini ta'kidlab o'tadi. Uning fikriga ko'ra maqollar aniq va tugal nazariyaga ega emas: "Paremiology, the study of proverbs, is practiced by many different kinds of people including cultural anthropologists, psychologists, folklorists, linguists, sociologists, educators, psychiatrists, historians, students of religion, literature buffs, and even lawyers, advertising executives, management consultants, and an occasional proverb aficionado. All these sentences imply the importance of proverbs". [Honeck, 1997, 277p.]

Yana bir misol qilib, mashxur ingliz folklorshunosi, Mayderni ham keltirishimiz mumkin. U ingliz xalq maqollari ustida ko'p izlanishlar olib borgan va ular haqida nazariy asarlar yozgan olimlarimizdan biridir. Mayder o'z asarlarida maqollarining eng ahamiyatga molik bo'lgan qirralarini izohlab berishga harakat qilgan: "Of the various verbal folklore genres (i.e., fairy tales, legends, tall tales,jokes, and riddles), proverbs are the most concise but not necessarily the simplestform. The vast scholarship on proverbs is ample proof that they are anything butmundane matters in human communication. Proverbs fulfill the human need tosummarize experiences and observations into nuggets of wisdom that provideready-made comments on personal relationships and social affairs. There areproverbs for every imaginable context, and they are thus as contradictory as lifeitself. [Meider, Dundes, 1995, 340 p.] Ya'ni, xalq og'zaki ijodining, folklorning hamma janrlari(ertaklar, afsonalar, hikoyalar, latifalar va topishmoqlar), maqollar eng qisqa va lo'nda bo'ladi, ammo oddiy ko'rinishda ham bo'lmaydi. Maqollar ustidagi juda katta ilmiy izlanishlar o'z isbotini topgan, ular inson bilan bo'g'liq holda vujudga kelgan. Maqollar odamlarning jamiyat bilan ularning tajribalari, uy-fikrlari, kuzatuvlari, qarashlari orqali namoyon bo'lislini aytib o'tadi.....

Maqollar ostida ko'plab izlanishlar olib borgan ingliz olimlarimizni keltirib o'tishimiz mumkin: Trench, Norik, Jozef Raymond, Archer Teylor, Seylor va boshqalarni misol tariqasida. Ular maqollar ustidagi ilmiy izlanishlari borasida ko'plab nazariyalarga to'xtalib o'tadilar: maqollar an'anaviylik xususiyatiga ega ekanligi, ular axborotchi ekanligini, maqollar tayyor strukturaviyligi, qisqa va lo'ndaligi bilan ajralib turishi, ularda hissiyot mavjudligi, ya'ni obrazliligi, har xil tasviriy vositalar mavjudligi borasida fikrlar yuritganlar. Biz yuqorida fikrlardan ko'rib turibmizki, ingliz xalq maqollarining o'zbek xalq maqollariga qay darajada mutanosibligini.

Ularning maqollar haqidagi asarlariga kelsak: Mayderning , "International Bibliography of Explanatory Essays on Individual Proverbs and Proverbial Expressions" (1977), "Proverbs in Literature: An International Bibliography" (1978),

“The Wisdom of Many: Essays on the Proverb” (1981), “Proverbs Are Never Out of Season: Popular Wisdom in the Modern Age” (1983), “Investigations of Proverbs, Proverbial Expressions, Quotations and Cliches: A Bibliography of Explanatory Essays which Appeared in «Notes and Queries»(1984), “Twisted Wisdom: Modern Anti-Proverbs” (1999), “Proverbs: A Handbook” (2004), «Proverbs Speak Louder Than Words” and etc. Honekning “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom”, Shirli L. Aroraning “The Perception of Proverbiality” asari va hokazolarni keltirishimiz mumkin.

Yuqorida biz, o’zbek maqollaridagi xossalardan biri antroposentrik maqollar ham ingliz xalq maqollarida mavjudligini ko’rib chiqqandik. Ana shu xossalardan biri, antroposentrik maqollar haqida yana bir bor qisqacha to’xtalib o’tsak:

Antroposentrik maqollar ustida juda ko’plab tilshunoslarimiz ish olib borganlar. Antroposentrik maqollar qanday bo’ladi? Bu savolga yana bir bor shunday javob berishimiz mumkin: antroposentrik maqollar har doim insonga murojaat qiladi. Maqol insonga qanday yashashni o’rgatadi. Unga qandaydir hatti-harakatni amalga oshirishga da’vat etadi yoki uni taqiqlaydi. Maqollarda hayvonot yoki narsa nomi ostida inson tasvirlanadi. Masalan, ingliz tilidagi antroposentrik maqollarga misollar keltirsak [MacmillianEnglish Dictionary Second edition 2007,130b]:

Ingliz tilida: “Fire, Set the Thames on”

Tarjimasi: “Epchil xotin qor qalab qozon qaynatar”

Ingliz tilida: “A friend in need is a friend indeed”

Tarjimasi: “Do’st kulfatda bilinar”

Ingliz tilida: “The cat has nine lives”

Tarjimasi: “Ayolning joni qirqta bo’ladi”

Ingliz tilida: “Six hours sleep for a man, seven for a women and eight for a fool”

Tarjimasi: “Olti soat uyqu erkakka, yetti soat uyqu ayolga, sakki soat uyqutentakka”

Ingliz tilida: “Barking dogs seldom bite”

Tarjimasi: “Akillagan it ba’zida qopar”

Ingliz tilida: “The dogs bark, but the caravan goes on”

Tarjimasi: “It hurar karvon o’tar”

Ana shunday antroposentrik maqollardan ko’plab keltirishimiz mumkin va albatta ularning hammasida inson obrazi gavdalangan. Bu misollardan ko’rinib turibdiki, ingliz tilidagi maqollarning tarjimasi o’zbek maqollariga mutanosibligini. Ingliz tilidagi darsliklarda antroposentrik maqollarning o’rni haqida gapiradigan bo’lsak, ularning o’zbek auditoriyasi talabalari uchun ahamiyati juda katta. O’zbek maqollari kabi ingliz maqollarining ham tub zamirida hikmatli so’zlar yotadi. Va albatta bu esa yoshlarni vatanparvarlikka, mehnatsevarlikka, kattalarni hurmat qilishga, o’qib bilim olishga chorlaydi. Maktabdagagi ingliz tili darsliklarida berilgan antroposentrik maqollardan birgina misol qilib, “A friend in need is a friendindeed”, ya’ni: “do’st boshga kulfat tushganda bilinadi”, “Out of sight, out of mind”, ya’ni: “avval o’yla, keyin so’yla” kabi maqollarini oladigan bo’lsak, bularning didaktik ahamiyati benihoyadir. Ularda do’stga qanday munosabatda bo’lish, har doim yaxshilik qilish, yomonlikdan yiroqda bo’lish, biror gapni gapirishdan oldin, obdon o’ylab so’ng gapirish kerakligini, bo’lmasa o’zgalar ko’ngliga ozor yetkazib qo’yishligi ifodalangan. Asosan til bilan ishlaydigan yoshu-qari, lug’atlardan foydalanadi va unda berilgan antroposentrik maqollarni o’rganayotganda, o’zlariga tegishli bo’lgan xulosa chiqarishadi.

Maktab darsliklaridan tashqari, boshqa ingliz tili darsliklarda ham biz ingliz xalq maqollarini uchratishimiz mumkin. “English Matters” kitobining 8-chi sonini oladigan bo’lsak. Bu kitob ingliz tilini o’rganuvchilar uchun mo’ljallangan bo’lib, darslik U.Lee, N.Tsarikova, N.Zakirov, A.Tenantlar tomonidan yozilgan bo’lib, 2002 yilda nashr etilgan. Darslik 9 bo’limdan iborat bo’lib, har bir bo’lim 11ta darsdan iboratdir. Masalan misol qilib, til o’rganuvchilar uchun mo’ljallangan ingliz tili darsligining 6-bo’lim 10-darsi “Proverbs”, ya’ni maqollarga tegishli bo’lgan mashqlar berilgan.

Biz ularning ichidan atroposentrik maqollarini oladigan bo’lsak, 6 ta maqol

berilgan:

Inglizchada: "A bird in the hand is worth two in the bush"

Tarjimasi: "Nasiya saryog'dan, naqd o'pka yaxshi"

Inglizchada: " When in Rome, do as the Romans do"

Tarjimasi: Kimning aravasiga minsang, o'shaning qo'shig'ini ayt"

Inglizchada: "Look before you leap"

Tarjimasi: "Daryoga ot solmasdan avval kechuvini top"

Inglizchada: "Every cloud has a silver lining"

Tarjimasi: "Har yaxshida bir «ammo» bor, har yomonda — bir «lekin»"

Inglizchada: " There's no point crying over spilt milk"

Tarjimasi: "Toshib ketgan sut ustida yig'lashdan foyda yo'q"

Inglizchada: "Don't count your chickens until they've hatched" [Lee, Tsarikova, Zakirov, 2002, 71b]

Tarjimasi: "Chuchvarani pishirib sana, Jo'jani — ochirib". Bu maqollarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning hamasi antroposentrik maqollarga kirmaydi. Jami 6 ta maqollar berilgan. Shulardan 3 tasi antroposentrik maqollarga kiradi. Va bu maqollarning didaktik ahamiyati til o'rganuvchilarga judayam muhimdir. Mashq orqali o'quvchilar ham tilni o'rganishadi, ingliz xalq maqollarini o'zbek xalq maqollariga mutanosibligini va ularning tarbiyaviy ahamiyatidan o'zlariga tegishli xulosalar chiqarishadi. O'zimizni magistratura bo'limida 1-kursida o'tgan "Lingvoculturology" fanimizdagi ayrim mavzularining ham maqollarga tegishlisi bor, yani o'zga millat-ingliz xalq antroposentrik maqollardan namunalar keltirilgan:

Inglizchada: " To many cooks spoil the broth"

Tarjimasi: " Qo'ychivon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'lar"

Inglizchada: " Where there's a will, there's a way"

Tarjimasi: " Intilganga tole yor"

Endilikda, darsliklarning tahliliga keladigan bo'lsak, 3 ta ingliz tili darsliklarini, ya'ni:

1. "Fly High" English 9, L.Jurayev va boshqalar;
2. "English" Student's Book, G.Bakiyevava boshqalar;
3. "English Stylistics", Q.Musayev ni tanladik va ularda maqollar ifodalanganmi yoki yo'qligini birma-bir ko'rib chiqdik.

Birinchi darsligimiz, 9-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, Lutfullo Jurayev, Mahprat Abdullayeva, Hayothon Tuhtarova, Svetlana Khan, Ludmila Tsoy, Klara Inogamova, Larisa Matskevich, Rozaliya Ziryanovalar tomonidan talqin etilgan. 2014 yilda chop etilgan va bu darslik 176 betdan iborat, 9 bob, 67 ta darsdan tashkil topgan. Darslikni ko'zdan kechirganimizda, 1 gina maqol topildi. "Knowledge is power"- Bilim kuchdir maqoli 105 betda o'z aksini topgan. Bundan ko'rinish turibdiki, bu maqolda inson obrazi ifodalanmagan, ya'ni bu maqol antroposentrik maqolga kirmaydi.

Ikkinci darsligimiz, kollej o'quvchilarining 1-kurslariga mo'ljallangan bo'lib, Bakiyeva G, Irisqulov A, Rashidova F, Tillayeva N, Karimova Z, Tursunboyeva S, Norova D, Djaldoldinova M, Mamanabiyeva D lar asos solganlar. Bu darslik ham, 176 betdan, 12 ta bobdan tashkil topgan, 2014 yilda chop etilgan. Bu darslikda ham atigi birgina maqol berilgan: "Knowledge is better than wealth"- "Boylikdan bilim afzal"-maqoli 122 betida berilgan. Bu maqol ham antroposentrik maqollar sirasiga kirmaydi.

Uchinchi darsligimiz, ingliz tili yo'naliishi bo'lgan oliv o'quv yurtlarining 3-kurslariga mo'ljallangan bo'lib, Musayev Qudrat tomonidan yozilgan. Darslik, 314-betdan iborat, 2003 yilda chop etilgan. "Live and Learn"- "Yashagin va O'rgan", " Look before you leap"- "Sakrashdan oldin qara", "Peter to pay Paul, Rob"- "Polga pul to'lash uchun Piterni tunamoq", o'zbek tilidagi ekvivalenti "Etakni kessang, yeng bo'lmas", "When the cat's away, the mice will play"- "Mushuk ketsa, sichqon

o'ynar”, «Better late than never»-“Hech bo'limgandan kech bolgani afzal”, “Out of sight, out of mind”-

“He laughs best, who laughs last”-“Oxirgi kulgan yaxshi kuladi”, “A great ship asks deep water”-“Ulkan kema chuqur suv talab qilar”, «Marriages are made in Heaven»-“Nikohlar osmonda bitiladi”, “To kill two birds with one stone”-“Bir tosh bilan ikki qushni urib tushirmoq”, “To teach old dogs new tricks”-“Qari itning hiylalarini o'rganmoq qiyin”, “To fish in troubled waters”-“Loyqa suvdagi baliq”, «Eat at pleasure, drink with measure”-“Rohatingga yegin, me'yorida ichgin”, “A friend in need is a friend indeed”-“Do'st boshga kulfat tushganda bilinadi”, “Two heads are better than one”-

“Ikki bosh bir boshdan yaxshi” kabi maqollardan yana 38 tasi mavjud.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, ingliz xalq atroposentrik maqollar ham o'zbek maqollarga o'xshashliklarini. “Maqollar- hikmatli so'zlar bo'lib, hayot haqida ma'nodor maslahatlar beradi”. [Permyakov, 1979,14b] Maqol madaniyat belgilaridan biri bo'lib, xalqning, ya'ni avlodan-avlodga o'tib kelayotgan xayotiy falsafiy tushunchalarni anglatadi. Maqollar xalq og'zaki ijodining yorqin ifodasi bo'lib, ularning mazmun mohiyati, insonlarga bo'lgan didaktik ahamiyati juda kattadir. Har bir mamlakatning maqollarida o'sha mamlakatning madaniyati, turmush tarzi aks etgan bo'ladi va ularni o'rganish natijasida biz o'zga madaniyatni o'rganamiz. Mavzu jihatdan nihoyatda boy, ixcham, lo'nda, sodda bo'lgan hikmatli so'zlar, asrlar mobaynida sayqallanib kelmoqda.

1-jadval

Darsliklar	Maqollar soni	Antroposentrik maqollar soni
“Fly High” English 9	1 ta	0
“English” Student's Book	1 ta	0
“English Stylistics”	53 ta	13 ta
Jami: 3ta	55 ta	13 ta

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev.T,”O'zbek xalq maqollari”.- Toshkent: Sharq, 2012.-47b
2. Даљ В.И. Пословицы русского народа. Изд. Астрель, АСТб 2000.-14b
3. Imomov.K,Mirzayev.T, Sarimsqoqov.V, Safarov.O “O'zbek xalq maqollari.,1990.-130b
4. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277p
5. Meider, W. Dundes, A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb.- NewYork: Garland, 1995. –340 p.
6. MacmillianEnglish Dictionary Second edition 2007,130b